

{ BIRINCHI KITOBIM }

Shavkat Odiljon

Baxt bekati

she'rlar



MAJBURUV NUSXA

Toshkent
«Akademnashr»
2015

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')7

O-29

- 938. ағод

O-29

Odiljon, Shavkat

Baxt bekati / Sh.Odiljon. – Toshkent: Akademnashr,
2015. – 32 b.

ISBN 978-9943-985-33-9

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')7


Aziz kitobxon!

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» yosh ijodkorlar seminarida chop etilishga tavsiya qilingan ushbu kitob sizning kitob javoningizdan joy olar ekan, mutolaadan so'ng yuragingizdag'i Ona Yurtga, Ona Vatanga bo'lgan mehr-u muhabbat uchqunlari yanada alanganishiga chin dildan ishonamiz.

Mas'ul muharrir: **Mahmud TOIR,**
O'zbekiston xalq shoiri

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» respublika yosh ijodkorlari seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Jod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

10 43922
091



ISBN 978-9943-985-33-9

© Shavkat Odiljon «Baxt bekati»

© «Akademnashr», 2015

O'CHMAS MASH'ALA

Bugun yigirmaga kirmay ijodining qadrlana-yotganidan yuragi g'urur-u faxrga to'lgan ijodkor yoshlarimiz o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yemoqda. Chunki u qo'lidagi «**Birinchi kitobim**» loyihasida chop etilgan ilk kitobchasiga boqib kelajakda shu yurtga kerakligini, yurti oldidagi burch va vazifalarini ado etishda matonatli bo'lishi lozimligini katta hayajon bilan his qilmoqda. Yurt sha'ni, o'z xalqining milliy an'analarini, yuksak insoniylik, muhabbat, sadoqat tuyg'ularini o'zida mujassam etgan she'rlar va hikoyalar mualliflari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan «Do'rmon» ijod uyida o'tkazilayotgan «Iste'dod maktabi» seminarlarida kashf etilmoqda. Besh yil mobaynida ushbu seminarda faol qatnashib kelayotgan yoshlarimiz respublikamiz bo'ylab o'tkazilayotgan har bir bayram tadbirida o'zlarining ijod namunalari bilan qatnashib, ustozlar ishonchini oqlamoqdalar. Muhtaram Yurtboshimiz tashabbusi bilan ijodkor yoshlarimiz hayotida unutilmas an'anaga aylangan ushbu loyiha yurtimizda adabiyotga berilayotgan katta e'tiborning yorqin samarasи bo'lib, ijodkorga, o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yish, Vataniga, qalamiga sodiq qolmoqlik mas'uliyatini yuklaydi.

Ushbu jajjigina kitobchalar qo'lingizga yetib borishi bilan siz muxlislarning ham qalbingizda g'urur va faxr tuyg'usini uyg'otishiga ishonamiz. Zero, yoshlikning nashidasi ufurib turgan ijod namunalarini qalblarda o'chmas mash'ala bo'lib porlab turadi.

QANDAY YAXSHI

O‘z tilingda «Ona» demoq qanday yaxshi,
Qanday yaxshi «Vatan» desang o‘z tilingda,
Vujudingda mehr niholday o‘sadi,
Bo‘lsa ezgu kalom, ezgu so‘z tilingda,
Qanday yaxshi «Ona» desang o‘z tilingda.

Nur yog‘ilgan yuzing go‘zal, ko‘zing go‘zal,
Harfni marjon qilib tuzgan so‘zing go‘zal,
Ko‘zlarimga ko‘rinasan o‘zing go‘zal,
Bo‘lsa ezgu kalom, ezgu so‘z tilingda,
Qanday yaxshi «Vatan» desang o‘z tilingda.

Sen so‘zlasang, boshim egib, tiz cho‘kaman,
Bir butunman Haq yaratgan so‘z ila man,
Bundan katta baxt-u iqbol yo‘q, bilaman,
Bo‘lsa ezgu kalom, ezgu so‘z tilingda,
Qanday yaxshi «Ona» desang o‘z tilingda.

Ehtiromga arzir hamma elat bugun,
O‘zbek shirin so‘zi bilan millat bugun,
Moziyning zarvarag‘ida abad bugun,
Bo‘lsa ezgu kalom, ezgu so‘z tilingda,
Qanday yaxshi «Vatan» desang o‘z tilingda.

Ayrim ellar borki, go‘yo yo‘qdek tili,
Bu olamda bir el borki, cho‘g‘dek tili,
O‘ziga bek, olam bilar o‘zbek tili,
Qanday yaxshi «Ona» desang o‘z tilingda,
Qanday yaxshi «Vatan» desang o‘z tilingda.

VATAN DESAM...

Qiynalaman, ne deyishni bilmayman hech,
So'rasalar, yurak hayajonlanadi.
Vatan desam, ko'z oldimda go'zal bir qiz
Va qishloqda bir majnuntol jonlanadi.

Qamchi yemay ulg'aydi toy-samanlari,
Xazon bo'lmay o'sdi bog'-u chamanlari.
Bu zaminda hech kim yomon otliq emas,
Yomonlarning bo'lganmi hech Vatanlari?

Vatan desam, Onam desam, o'pkam to'lib,
Ko'z yoshlарим kiprigimga surinadi.
Viqoringdan Jamolungma xayolimda
Oddiy bitta tepalikday ko'rindi.

Yaxshi kundan ayirmasin Parvardigor,
Yetkazmasin turli qo'lni kuragimga.
Vatan desam, Vatan desam, axir, Vatan
Ko'krak suti bilan kirgan yuragimga.

Qiynalaman, ne deyishni bilmayman hech,
So'rasalar, yurak hayajonlanadi.
Vatan desam, ko'z oldimda go'zal bir qiz
Va qishloqda bir majnuntol jonlanadi...

IFTIXOR

Sohir tuyg‘ularning silsilasi ham
Baxtli etolmaydi, do‘sstarim, haqsiz.
Beixtiyor Vatan so‘zini aytsam,
Ko‘zimdan nur chaqnab ketadi, shaksiz.

Safarga otlansam olis o‘lkaga,
Sayyoh deb sovg‘alar qilsalar in’om,
Bilaman, baridan afzal turadi
O‘zbekning bolasi degan ulug‘ nom.

Kimki yurtni sevmas, kechgan o‘zidan,
Millat bilan kelar bir kun yuzma-yuz.
Aniqki, Xudoyim haqqiga qasam,
U yurtga farzandman deyishga haqsiz.

Jilg‘alar daryoga quyilar borib,
Daryolar oshiqar doim ummonga.
Qayerda bo‘lsak ham dog‘ tushirmaylik
O‘zbek degan nomga, O‘zbekistonga!

Shoirlar faxriya bitsin, alqasin,
San’atkor kuylasin Vatan madhini.
Dunyo ko‘rib qo‘ysin, el polvonlari
Birovga oldirib qo‘ymas haqqini.

Iftixorim mening o‘zbek degan nom,
O‘zbekiston so‘zi chulg‘ar ziyoga.
Baralla hayqiring, eshitsin jahon,
Axir, biz vorismiz ko‘hna dunyoga!

BAHORIY O'YLAR

Yam-yashil dalalarda toylarini yetaklab
Boychiborlar sayr etar,
Farovon va tinch zamон.
Erkalanib yuz ochmish boychechaklar ertalab,
Ko'ngil kabi musaffo tusga kiryapti osmon.

Ming yillik mudranishdan uyg'onar go'yo olam,
Ko'zi yorgan kelinday kurtaklab, gullar og'och.
Volidam shu zamindir, gul-u giyohi bolam,
Ko'kda charx urayotir munis singlim – Qaldirg'och.

Mehribon opalarim – Turnalar qaytmoqdadir,
Navro'z kelib yopildi eski ginalar, izlar.
Yer bag'riga darz solib, boshin ko'tarib dadil
Maysalarday nish urar qalbda orzular, hislar...

Xizmatidan mammundir Oy-u Yulduz mushtarak,
Borliqqa ruh bag'ishlar Boboquyoshning tafti.
Dunyo – jadallik bilan uchayotgan Bozbarak,
Har mavjudot jonlanar Ona tabiat kabi.

Toylar tetapoyalab G'irko'k bo'lar kun kelib,
Afsona qobig'iga darz solar har jonlari...
Tug'iladi bugunday shamol-u to'fon bo'lib
O'z davrining Cho'lponi va buyuk Usmonlari.

Ko'klagan millat uchun mehr kerak, ishq kerak,
Ochun nedur, muhabbat ayalsa undan agar.

Oybarchinday botir-u Manguberdiday yurak
Bilan yashaydi bu el vohadan vodiy qadar.

Uyg'onish davri qutlug', yasharish qutlug', asli,
Hayotbaxsh tuyg'ularni endi Sizga aytaman.
Necha yoshda bo'lsam ham, do'stlar, har bahor fasli
Mo'jiza yuz berar-u, o'n yettiga qaytaman,
O'n yettiga qaytaman.

BAXT

Yo‘ldan o‘tib ketmoqda taqdir,
Sevgi javlon urar mehnatda.
– Horma, nega ishlaysan, sevgi?
– Nomim qolsin abadiyatda.

Savol-javob cho‘zildi rosa,
Taqdir ishqidan o‘ylanib qoldi.
– Horma, – dedi yana bir karra
Va qo‘liga ketmonni oldi.

Mehnat qildi ikkovlon uzoq,
Noni halol – yugurdi, yeldi.
Inoqlikdan nishon dunyoga
Baxt ismli chaqaloq keldi.

BOBOM HAQIDA

Momomning aytishi bo'yicha, bobom
Esini yeb qo'yan qari chol edi.
Dadamning aytishi bo'yicha, bobom
Savodi-yu ilmi o'rtahol edi.

Bobom aso tutdi – qarilikka zeb,
Asoni ko'raman yod qilgan sari.
Ko'plarga oddiy chol, ammo «Buyuk» deb
Atashar bobomni og'aynilari...

Nihol ekip o'tdi bobom toabad,
Ulug'vor ko'rardi qishloq, zamonni.
Zamin nihollarga kuch berdi, faqat
Quchog'iga oldi sho'rlik bobomni.

Yalangoyoq chopib tuproq ko'chada
Qoqilib-yiqilsam hechqisi yo'q.
Momom koyir edi: – Esin yeb qo'yan
Boboyning bolasisan-da, esi yo'q.

Hammasi yaxshi-ku, dadam ba'zida
Oqshomlari ko'zin yummay uxlaydi.
Mening nazarimda, momom tunlari
Esi yo'q cholini eslab yig'laydi.

Bobomni qayirdi qancha nokaslar,
Sira qulamadi iroda qasri.
Men bugun bobomga qilaman havas,
Esi yo'qlar buyuk bo'larkan, asli.

AYA

Aya,

Yosh boshimga qildim ko‘p xato,
Biroq xatolarni hech tan olmadim.
Ko‘ngil olishni-ku bilmayman, hatto
Ko‘ngil berishni ham o‘rganolmadim.

Aya,

Yolg‘iz farzand bo‘lish qiyinmas,
Odamlar achinib qaraydi nechun?
Ellik yil men uchun yashadingiz, bas!
Qachon yashagaysiz o‘zingiz uchun?

Aya,

Men bilaman, kuladi tole!
Bir kun el qatori bo‘lib yasharman.
Qay holda, qachonki sizni o‘ylasam,
Xudo ham yodimga tushadi birdan.

Aya,

Ko‘ryapsizmi, so‘zga no‘noqman,
No‘noq so‘zimga ham asir qancha qiz.
Axir, sizga hech ne berolmadim-ku,
Siz esa dunyoni menga berdingiz.

Aya,

Qushlar kabi uch deysiz, lekin
Na yerni, na ko‘kni qucha olmayman.
Mening tuyaqushdan nima farqim bor –
Qanotlarim bor-u, ucha olmayman.

QISMAT

Kimdir mitti nihol qadadi yerga,
Parvarish ayladi necha tong, shomlar.
Yillar zamirida o'sgan daraxtning
«Tagiga suv quydi» har vaqt odamlar.

Tarvaqaylab o'sgan, haybati ulkan,
Mag'rur ko'rinardi tik bo'lgan damlar...
Avval bosh ustiga tom qildi uni,
So'ng pol qilib bosib o'tdi odamlar.

Jimgina o'sgandi daraxt bechora,
Bezabonlik sabab kesilib ketgan.
So'ng oq qog'oz bo'ldi qoralash uchun
Va oxir g'ijimlab otdilar chetga...

HAZRAT NAVOIY

Osmonga boqaman –
Bepoyon, tubsiz,
Ko'nglimni ezadi ismsiz hasrat.
Go'yo insoniyat qolgan qutbsiz,
Sizga suyangaymiz, Navoiy hazrat.

Mana, necha asr o'qib, o'rganib,
Gohida o'nglanib, gohi o'rtanib,
Ba'zida tutab-u ba'zida yonib
Sizga suyangaymiz, Navoiy hazrat.

Zaminga yomonlik ravo ko'rmayman,
Ohista yurgayman, ozor bermayman,
Chalishib yiqilgay yerga gerdagyan,
Sizga suyangaymiz, Navoiy hazrat.

Har yoshda ko'zimga singasiz turli,
O'n sakkiz yoshimda oshiqsiz sirli,
O'ttizimda yuzi faylasuf nurli,
Sizga suyangaymiz, Navoiy hazrat.

Necha asr tinmas alqash, xitoblar,
Siz desa charaqlab ketar oftoblar,
Sizga suyangaydir barcha kitoblar,
Sizga suyangaymiz, Navoiy hazrat.

Oz-oz o'rganib, qatralab yig'ib
Qalbga muhrlangan Navoiy tug'i,
Har bitta turkiyning katta yutug'i,
Sizga suyangaymiz, Navoiy hazrat.

ZULFIYAXONIM HAYKALI QOSHIDA

Bahorning ilk tongi. Uyg‘onish edi.
Vujudim bir yon-u ko‘nglim bir dardda.
Zulfiyaxonimning yonida edim,
Sevgini angladim birinchi marta.

Birinchi mart edi. Bir ohanrabo
O‘ziga tortardi. Birga kuylardim.
Butun koinotni bilmasdim, ammo
Shu lahza birgina Uni o‘ylardim.

Unda To‘marisning ruhi mujassam,
Unda jo‘sh urmoqda Uvaysiy qoni.
Har bahor Zulfiya uchun kelsa ham,
U esa o‘ylardi Yurtni, Dunyonи.

So‘zni qadrlagan, so‘zga sig‘ingan,
U aytgan so‘z bugun bo‘yin ko‘rsatdi.
Ko‘ziga uyqumas, armonlar ingan
Shoiram o‘ziga haykal o‘rnatdi.

Matonat bobida tosh yorar inson,
Jon bersa ne bo‘pti daraxt turib tik.
Odamzod o‘ladi degan gap yolg‘on,
Odamzod o‘lmaydi, u mangu tirik.

«BULBULGA BIR GAPIM BOR»

Tog‘da burgut ini bor ekan,
Inda allakimi bor ekan.
Tog‘-u toshda bir suluv ko‘rdim,
Lekin uning jini bor ekan.
Sevgim deya Haqqa yukindim,
Men jayronga aka tutindim.

Sevgiga o‘ch Muhammad akam,
Yaralishi muhabbat akam.
Dunyo degan eski bir kema
Bor-u yo‘g‘i kamomad akam.
Jayronko‘zda baxtni ko‘ray man,
Aka, Sizdan ko‘ngil so‘rayman.

Lola mening bolam bo‘ladi,
Muhammadim yaxshi biladi.
Sepsiz bo‘lsa mayli-ku, lekin
Epsiz bo‘lsa alam qiladi.
Ko‘ksim alyon, Muhammad akam,
Quchoqlasam, bag‘rim qon, akam.

Xalqim bilgan Zebijon opam,
Kimdan qolmas nom-nishon, opam.
Muhammadning yo‘qligi yolg‘on,
U hayotdir, sen ishon, opam...
Yo‘qsa, o‘zdan tonardi jonlar,
Hayot tugar edi qachonlar...

Yaxshiga kun, badga o‘lim yo‘q,
Siz tomonga borar yo‘lim yo‘q.

She'riyatga kelish bor, ketmoq...
She'riyatda bunday bo'lim yo'q.
Odam borki Muhammadsevar,
She'rsevar-u muhabbatsevar.

Umrin xalqqa nazira etgan,
Dilda qolib dunyodan ketgan,
Inson bormi, hazrati inson
Muhammadday shoirdan o'tgan?
Muhammad yo'q, ne kas bo'lzin jam,
Borsakelmas tomonlarda ham.

Shoirlik bu – eski aqida,
Shoir bisyor o'zbek xalqida,
Ko'tarinki she'r so'rmang mendan
Erta ketgan akam haqida.
Ko'k toqida lolaqizg'aldoq,
Qizil gulmas, g'ussadan oppoq.

Siz sarson she'r xayoli bilan,
Men vayron dil ahvoli bilan,
Davron sursa bo'lmasmidi, a,
Yurti, xalqi, iqboli bilan?
Men qismatga zayil qolaman,
Taqdirgayam qoyil qolaman.

Muhammadlar ichra boyisiz,
So'z ahlining hotamtoyisiz,
Muhammadim, rost aytibsiz, rost!
Siz Xudoning erkatojisiz!
Tog'da burgut aytmoqda o'lan,
Tillashurmiz jayronlar bilan.

BO'YQIZ HAQIDA SHE'R


To'rt fasl bu ko'cha menga qadrdon,
Mana, necha yilki sabrimni sinar.
Oddiy somonshuvoq bo'lgan xonodon
Qishda ham ko'zimga issiq ko'rinar.

Bir kunda ming marta o'taman bundan,
Sababin hech kimga aytmayman dangal.
Xotirjamlik ketar. Har kuni tunda
Bu uy o'ylarimga soladi changal.

Har manzilga eltar yaqinroq yo'l bor,
Lekin oshiq tersga borganin ko'ring.
Nima qilsin, shu uy qilsa gar xumor,
Nodon oyog'idan horganin ko'ring.

Bahona topilmas, ochiqdir darcha,
Ne holga tushyapman kun o'tgan sayin?
O'ligi bor bir kun yig'laydi, garchi
Jinnisi bor har kun yig'lashi tayin.

Axir tushayapman, mana, ne ko'yga,
Nechun o'zni buncha qilyapman sayyor.
Hech kimsa sezmaydi, axir, bu uyda
Bo'yi tandirdan past bo'y yetgan qiz bor!



HIKOYA

Taqdiri azal, do'stlar,
Taxir-u talx bo'larkan.
Bilmasdim, qiz degani
G'alati xalq bo'larkan.

Bo'yga yetib yonimdan
Boshin egib o'tdi u.
Ortiq edi jonimdan,
Erga tegib ketdi u.

Ko'ngil - zang bosgan qulf,
Urindik, ocholmadik.
Odamlardan qochdig-u,
Xudodan qocholmadik.

Ko'kka nola qilasan:
«Qarashmadi ko'nglima».
Orzu-havasi bo'lgan
Onangda gunoh nima?

Kelinsan, sen hammaga
Go'zal ko'rinyay deysan.
Hammaning ko'zi senda,
Sen esa yo'l qaraysan.

O'rtada uzik rishta,
Kim aybdor, sanmi, man?
Ignadan ip uzganday
Umid uzolmayapsan.

Tushunaman barini,
Netay, qismat talx ekan.
Qiz degani, do'stlarim,
Xo'p g'alati xalq ekan.

So'nggi marta yonimdan
Boshin egib ketdi u.
Hech narsa deyolmasdan
Erga tegib ketdi u.

Kuyov bola, yov bola
Kimligiga hayronman.
Hammagini bilib ham
Jimligiga hayronman.

«Falonching qizi bor»,
So'raydilar ataylab.
«Kuyovi zaylroqmish,
Qo'rs emish, izzattalab».

Axir hamma bilardi,
Eldan burun chopdimmi?
Ne gapki, shu zamonda
O'rtada sir qoptimi?

«Unuting», – deb yozibsan,
To'g'ri qipsan, to'g'ri qiz.
Unutaman, yuragim
Qaytib bersang, o'g'ri qiz.

Rasoman, telbalikka
Unchalik moyilmasman.

Shop mo'ylovli jahldor
Otangga qoyilmasman.

Esli odam xotinning
Gapiga kirar edi.
Uribmi, so'kib menga
Qizini berar edi.

«Nega yetisholmading?»
Ko'plar mendan so'radi.
Qiz otaga o'g'ildan
Mehribonroq bo'ladi.

Duo qildi otasi:
«Quyoshdek balq», – dedi-da.
Otasiyam, qiziyam
G'alati xalq edi-da.

QOR ARALASH YOMG'IR

Qor aralash yog‘adi yomg‘ir,
Yog‘ayapti hur iztiroblar.
Yarmi ochiq tokchada turar
O‘qilmagan qancha kitoblar.

Yomg‘irpo‘shni yelkandek yopib,
Sohildagi kema misoli
Keng ummonga chiqaman asta,
Bo‘lgim kelar kitobdan xoli.

Kitoblar, o, «semiz» kitoblar,
Qay bozordan sizni tanladim?
Men o‘zimni yo‘qotdim sizda,
Men o‘zimni sizda angladim.

Sizdan keyin tinigan ko‘nglim,
Chaqindayin o‘ylar kallamda.
Ba’zan sizni irg‘itganim rost,
Qasos oldim ba’zan qalamdan...

Gapni shuncha cho‘zdim, kifoya,
Bas, ey kitob qahramonlari.
Eng ziyoli mening qiyofam,
Menga o‘xshar eng darbadari.

O‘qilmagan kitobdagi qiz,
Nega meni qilasan ta’qib?
Axir bizlar temir yo‘l izi
Kabi do‘stmas, raqibmiz, raqib...

SEN UCHUN

Osmon olis, ammo osmon jim edi,
Soddaman, bilmasdim chaqmoqning kuchin.
Tunov kun yoningda turgan kim edi?
Ko'nglimni tarjima qildim sen uchun.

Atirgul ko'klamni tark etdi – firoq,
Ko'ksimni poralar Momaqaldiroq,
Qachon javob topar abadiy so'roq –
Ko'nglimni tarjima qildim sen uchun.

Mag'lubiyat bo'ldi mening zafarim,
Sening yuragingga qilgan safarim,
Tunlar eslab senga yetgan mahalim
Ko'nglimni tarjima qildim sen uchun.

Pushkinni tarjima qilsam bo'lardi,
Balki, o'qiganning ko'ngli to'lardi,
Muhammad Yusufni hamma bilardi...
Ko'nglimni tarjima qildim sen uchun.

Seni Yesenindan rashk qilgan paytim
To'pori bolaydim, o'zimday baytim,
Hech qaysi so'zimga bermading qaytim,
Ko'nglimni tarjima qildim sen uchun.

Kunduz Quyosh guvoh, oqshom Oy guvoh,
Gohi savob qilib, gohida gunoh,
Ming istihola-yu ba'zan tortib oh
Ko'nglimni tarjima qildim sen uchun.

MENI SEVMASANG

Yurak yutib, jon hovuchlab yashayman,
Qalbimda yo‘q edi zarra g‘ubor, chang.
Atrofingda shuncha yigit bo‘lgan dam
Nima qilar edi meni sevmasang?

She’rlarimga uchdingmi, ey sodda qiz,
Xayolingga ko‘chdingmi, ey sodda qiz,
Biror qasam ichdingmi, ey sodda qiz,
Nima qilar edi meni sevmasang?

Kerak paytda turolmasman yoningda,
Baxtli kunda yoki tushkun oningda,
Ayt-chi menga, qasding bormi joningda,
Nima qilar edi meni sevmasang?

Har ko‘rganda yarang yangilanadi,
Seni desa ichim timdalanadi,
Ikkimizni bitta arslon taladi,
Nima qilar edi meni sevmasang?

Kunduzlari yo‘l ko‘rsatar ey Oyim,
Kichikko‘nglim, gulim, sohibchiroyim,
Ikkimizga insof bersin Xudoyim,
Nima qilar edi meni sevmasang?

Endi dilim o‘t ichida, kulardi,
O‘t ichida senga umr tilardi,
Faqat yaxshi ko‘rsang nima qilardi,
Nima qilar edi meni sevmasang?

SEVGI HAQIDA SHE'R

Xotirang yomonmi, ayt!
Gap esingda qolmaydi.
Chin dildan sevgan odam
«Sevaman» deyolmaydi.
Aytsa obro' ketadi,
Aytmasa kuyar yurak.
Ming bor «sevaman» degan
Chindan sevmasa kerak.
Ko'nglim, biroz sabr qil,
Ko'ngliga mehr solar.
Aytma, qarashlaringdan
O'zi tushunib olar.
Faqat huda-behuda
Oldiga boraverma.
Yo'llariga ko'z tikib,
Mung'ayib qolaverma.
Axir yaxshi qiz-ku u,
Kim bo'ldi Kumush, Layli.
Yaxshilar avlodidan
Yomon odam chiqmaydi.
Bo'ronday sev, to'fonday
Boshqasi ortda qolsin.
Aytma, qarashlaringdan
O'zi tushunib olsin.
Gapirsang, «Hamasini
Tushunaman», – deydi u.
«Axir hammasi ertak,
Hushimdaman», – deydi u.
Hozir zamon o'zgacha,
Behud dilni siqasan.

Qizlarga sevdim desang
Ertakchiga chiqasan.
Qadri ketgan sevgini
Qadrsiz qilgan yonsin.
O'ziga ishonmas qiz
Senga qanday ishonsin?
Hayqir, chorla: «Oshiqlar,
Shu damda, qaydasizlar?»
Hijron o'tida kuysin
Baxt qushin haydaganlar.
Ko'rmayin yuzida g'am
Yo armonning ta'masin.
Chin dildan sevishganlar
«Sevaman» deyolmasin.

YAXSHI KO'RSAM...

Yoqimli bir bo'y taralar atrofimdan,
Bu bo'y ko'nglim xushlar endi, qarab tursam.
Yaxshi ko'rsam ko'raman-u... faqat zimdan,
Yaxshi ko'rsam nima qipti, yaxshi ko'rsam?!

Million yilda bir tug'ildim zo'rg'a endi,
Kim bas kelar million yillik zo'rga endi?
Shu holimga yaxshi ko'rsam go'rga endi,
Yaxshi ko'rsam nima qipti, yaxshi ko'rsam?!

Sen rayhonga bo'y beribsan, shamol aytdi,
Shamol bilan o'ynashibsan, ro'mol aytdi,
Ro'mol kelib, bag'rim ezib savol aytdi:
Yaxshi ko'rsam nima qipti, yaxshi ko'rsam?!

Atirgulni hidlagan dil mast bo'ladi,
Atirgulni ezb'ilagan past bo'ladi,
Gulni uzsang, suluvlarga qasd bo'ladi,
Yaxshi ko'rsam nima qipti, yaxshi ko'rsam?!

Alloh amri vojib, neki bo'lsa mayli,
Ko'ngil, asli, sevgi sayli, o'yin sayli,
Bu dunyoda neki ko'rsam sen tufayli,
Yaxshi ko'rsam nima qipti, yaxshi ko'rsam?!

Menday bisyor, bu olamda sen yagonam,
Sen mushfiq-u mushtiparim, singlim - onam...
Sevmaymanam, o'z holingga qo'ymaymanam,
Yaxshi ko'rsam nima qipti, yaxshi ko'rsam?!

IZTIROB HAQIDA SHE'R

O'zimni ayadim, seni ayadim*,
Qasam ichdim seni baxtli qilishga.
Vujudimni asrab-avaylor edim,
Ko'nglimni yubordim eng og'ir ishga.

Seni sevay dedim sendan ham ko'proq,
Nigohimni senga sarflab yubordim.
Barini Xudoga berdim-u, biroq
O'zimni ayardim, seni ayardim.

Sohir tuyg'ularim chayqalar sokin,
Seni sevishimni hamma bilardi.
Meni bilmas eding, mayli-ku, lekin
Xudoyimni bilsang nima qilardi.

Boladay qiqirlab o'ynar eding sho'x,
Zimdan kuzatganda hayron qolaman.
Garchi bu dunyoda menday abjir yo'q,
Ishq ichra dovrug'i doston bolaman.

Istasam bir chertib ko'kni to'ntarib,
Yulduzni benarvon uzib tushardim.
Hadya etardim-u senga men g'arib,
O'zimni ayardim, seni ayardim.

Oyga aytdim dardim, suvgaga yetkazdi,
Oqib ketdi endi u dardli suvlar.
Suluvlarga boqib umr o'tkazdim,
Nazar tashlamadi menga suluvlar.

Seni qutqarardim istaging uchun,
Obqochardim, otang bag'rin o'yardim.
Ammo ikkimizning baxtimiz uchun
O'zimni ayardim, seni ayardim.

* Iqbol Mirzo satri

TIRIKSAN

Ko‘zlariningda nur aks etmoqda,
Qadding nayza singari, tiksan.
Borliqda bir raqs ketmoqda,
O‘ynayapsan, demak, tiriksan.

Har tong ko‘kka chiqyapti oftob,
Har tun ziyo sochyapti mohtob,
O‘tgan har bir lahzang bir kitob...
O‘ylayapsan, demak, tiriksan.

Yuragingda hukm surar tinchlik,
Sen kutmagan baxt berar tinchlik,
Qoshingda qo‘l qovushtirar tinchlik,
Kuylayapsan, demak, tiriksan.

His etyapsan sevgi azobin,
Eshityapsan gullar azonin,
Bag‘irlaydi zamin xazonin,
Ko‘rayapsan, demak, tiriksan.

Bog‘ yaratding, qolar izing bor,
Halol non-u halol tuzing bor,
Bor, boraver, pok ul yuzing bor,
Ketayapsan, ammo tiriksan.

BAHOR SHAROFATI

Yomg‘irlar uyg‘ondi, gullar uyg‘ondi,
Muhabbatga no‘noq tillar uyg‘ondi,
Buloqko‘z, sutday pok dillar uyg‘ondi,
Bahor sharofati, bahor hurmati.

Ko‘ngilni qitiqlar qiz-dugonalar,
Boychechak, moychechak va pidonalar,
Uzlatga chekindi yot-begonalar,
Bahor sharofati, bahor hurmati.

Muhabbat fasli bu – sirli xat-xabar,
To‘y. Qizlar ko‘ngli va baxti so‘ralar,
Bolqon tutar yonib kuyovjo‘ralar,
Bahor sharofati, bahor hurmati.

Men ham bu hurmatga boshim egaman,
Tutday to‘kilaman – ko‘kka tegaman,
Toki o‘lgunimcha sizni sevaman,
Bahor sharofati, bahor hurmati.

YURAKKA BUYURDIM

Ismingizni aytsam, bo‘g‘zim lovullar,
Qog‘ozga yozgandim, qog‘oz ham kuydi.
Ismingiz eshitib tindi dovullar,
Yomg‘irlar siz bor deb yog‘mayin qo‘ydi.

Sizga soya tashlab xijolat bo‘lgan
Bulutlar osmonni tark etdi, qarang.
Siz ko‘z tashlamagan har nihol o‘lgan,
Siz boqqan har maysa ko‘k yetdi, qarang.

Siz kulgach, bir qo‘sinq boshladи qushlar,
Bulbul yig‘ingizdan oldi andoza.
Sizni deb o‘ngidan kelmoqda tushlar,
Siz gullar ichida eng nafis, toza.

Sizni ko‘rib rassom mulzam bo‘ldi, rost,
Go‘zallik deb chizgan suratlar sindi.
Hofizlar o‘zicha qilardi parvoz,
Sizni ko‘rib barin ovozi tindi.

Qaydanam duch keldim sizga, azizam,
Ko‘zlarim ko‘r bo‘ldi, quloqlarim kar.
Hayotga qaytmayman sizni deb o‘lsam,
Muhabbat degani bor bo‘lsa agar.

Sizni sevish nima? Kim menga guvoh?
Sizga yoqsam... Sizning ko‘nglingiz kimda?
Agar sizni sevish sanalsa gunoh,
Eng katta gunoh bor mening bo‘ynimda!

Mundarija

O'chmas mash'ala	3
Qanday yaxshi.....	4
Vatan desam...	5
Iftixor	6
Bahoriy oylar.....	7
Baxt.....	9
Bobom haqida.....	10
Aya	11
Qismat	12
Hazrat Navoiy	13
Zulfiyaxonim haykali qoshida	14
«Bulbulga bir gapim bor».....	15
Bo'yqiz haqida she'r	17
Hikoya.....	18
Qor aralash yomg'ir	21
Sen uchun.....	22
Meni sevmasang.....	23
Sevgi haqida she'r	24
Yaxshi ko'rsam....	26
Iztirob haqida she'r	27
Tiriksan	28
Bahor sharofati	29
Yurakka buyurdim.....	30

4000 ₸

Shavkat Odiljon

BAXT BEKATI

She'rlar

**Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O'SAROV
Musahhih: Otabek BOQIYEV**

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.03.2015-y.

Bosishga ruxsat etildi: 11.05.2015-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.

Schoolbook garniturasi. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 0,91. Sharthi b.t.: 1,17.

Adadi: 20000 nusxa.

Buyurtma № 106.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.